



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019 yil 1 iyul holatiga)

Ro'yxatdan
o'tgan
81,0 ming.

2019 yilning 1 iyul holatiga 81,0 mingta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17,7 foizga o'sgan.

Faoliyat
ko'rsatayotgan
78,3 ming.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 13,4 mingta (17,1 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 78,3 mingtani tashkil etgan.

Yangi tashkil
etilganlar
11,1 ming.


2019 yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida 11,1 mingtaga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,7 mingtaga ko'pdir.

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


(2019 yil 1 iyul holatiga)



2019 yilning 1 iyul holatiga 81,0 mingta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17,7 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 23,8% - savdo, 18,4% - sanoat, 7,5% - qurilish, 7,2% - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,1% - tashish va saqlash, 3,8% - axborot va aloqa, 1,8% - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,0% - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi hamda 32,4% - boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (19315 ta) savdo, (14924 ta) sanoat, (6113 ta) qurilish, (798 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (5865 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (3299 ta) tashish va saqlash, (3097 ta) axborot va aloqa, (1482 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda (26188 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 78,3 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 13,4 mingta (17,1 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Savdo




Sanoat




Qurilish




Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




Tashish va saqlash



Axborot va aloqa




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Boshqa turlari

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni tumanlar kesimida, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Yunusobod (10480 ta), Chilonzor (9982 ta), Mirzo Ulug'bek (8818 ta), Olmazor (8368 ta), Shayxontohur (7610 ta), Uchtepa (7148 ta), Yakkasaroy (7037 ta) va Mirobod tumanlar (6652 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Yashnobod (5807 ta), Sirg'ali (4631 ta) hamda Bektemir (1812 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.









Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019 yil yanvar-iyun oylarida 11126 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018 yilning shu davriga nisbatan 4735 taga ko'pdir.



2019 yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (4946 ta), sanoat (1768 ta), qurilish (953 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (652 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlash (345 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (139 ta), hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (123 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Savdo



4946

Tashish va saqlash



345

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



652

Qurilish



953

Sanoat



1768

Axborot va aloqa



356

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



139

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



123


Boshqa turlari



1844


Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Uchtepa (1600 ta), Chilonzor (1390 ta), Olmazor (1364 ta), Yunusobod (1279 ta), Mirzo Ulug'bek (1063 ta), Shayxontohur (1052 ta) va Mirobod (823 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yashnobod (801 ta), Yakkasaroy (708 ta), Sirg'ali (649 ta) hamda Bektemir (397 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

2017-2019 yillarning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni



Korxonalar sonining o'sishi, birlikda

TIJORAT KORXONALARI


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019 yil 1 iyul holatiga)


Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 69,5 mingtani tashkil qildi

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda


Mas'uliyati cheklangan jamiyati



Xususiy korxonalar




Oilaviy korxonalar




Unitar korxonalar



Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar


2019 yil 1 iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 5427 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 1383 taga yoki 25,5% ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

(1 iyul holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.




O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati %




Asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 2428 tasi qo'shma, 2999 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.




Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda




Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Mirobod tumanida 892 ta (jamidagi ulushi 16,5%), Yakkasaroy tumani 851 ta (15,7%), Yunusobod tumanida 722 tani (13,3%), Mirzo Ulug'bek tumanida 674 ta (12,4%), Chilonzor tumanida 642 ta (11,8%), Yashnobod tumanida 448 ta (8,3%) va Shayxontohur tumanida 378 ta (6,9%) tashkil etilgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Olmazor tumanida 303 ta (5,6%), Sirg'ali tumanida 211 ta (3,9%), Uchtepa 174 ta (3,2%) hamda Bektemir tumanlarida 132 ta (2,4%) tashkil etgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Ko'rinib turibdiki faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklariga to'g'ri keladi.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



2019 yilning yanvar-iyun oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 926 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 326 taga ko'paygan.

Turkiya Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 148ta, Xitoy Xalq Respublikasi – 143 ta, Rossiya Federatsiyasi – 132 ta, Qozog'iston Respublikasi – 123 ta va Koreya Respublikasi – 63 ta korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdoda 361 ta, sanoatda 167 ta, qurilishda 126 ta va 272 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarni yillar kesimida soni, birlikda



2019 yil 1 iyul holatiga Toshkent shahrimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 68,7 mingtani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 18,8% ga oshgan.

2019 yil yanvar-iyun oylarida 10,7 mingdan ziyod kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 43,6 % ko'proqdir.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tumanlar kesimida jamidagi ulushi 1 iyul holatiga

• Eng katta ulushi

• Eng kichik ulushi



• Yunusobod tumani
13,3 %



• Yakkasaroy tumani
9,1 %



• Chilonzor tumani
12,7 %



• Mirobod tumani
8,1 %



• Olmazor tumani
11,1 %



• Yashnobod tumani
7,3 %



• Mirzo Ulug'bek tumani
11,0 %



• Sirg'ali tumani
6,1 %



• Uchtepa tumani
9,5 %




• Bektemir tumani
2,4 %



• Shayxontohur tumani
9,4 %

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 68,7 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 18,6 mingta (27,0%) – savdo, 14,4 mingta (20,9%) - sanoat, 5,9 mingta (8,5%) - qurilish, 0,7 mingta (1,1%) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 5,5 mingta (8,1%) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 3,1 mingta (4,6%) - tashish va saqlash, 2,9 mingta (4,2%) - axborot va aloqa sohasi, 1,2 mingta (1,7%) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek, 16,4 mingtasi (23,9%) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi %



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

1,1




Sanoat

16,4



Qurilish

8,8



Savdo

45,9



Tashish va saqlash

3,2



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

6,1




Axborot va aloqa

3,3



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,3




Boshqa turlari

13,9



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 4942 ta, sanoat 1762 ta, qurilish 951 ta va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 652 ta tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlashda 345 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatishda 135 ta hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 122 ta tashkil etilgan.


Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Uchtepa (1577 ta), Chilonzor (1344 ta), Olmazor (1330 ta) va Yunusobod (1232 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Yakkasaroy (673 ta), Sirg'ali (633 ta) hamda Bektemir (393 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

(1 iyul holatiga)




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan
● Yangi tashkil etilgan




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan
● Yangi tashkil etilgan

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni tumanlar kesimida soni, birlikda

2019 yil 1 iyul holatiga



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 41,8% yoki 1104 tasi sanoat, 18,8% yoki 496 tasi savdo, 17,8% yoki 470 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 2,8% yoki 73 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,5% yoki 41 tasi axborot va aloqa, 1,4% yoki 36 tasi qurilish, 1,0% yoki 27 tasi tashish va saqlash, 0,8% yoki 22 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 14,1% yoki 374 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Toshkent shahar
statistika boshqarmasi
statistik registrlarni
yuritish bo'limi boshlig'i
Rashidov Aziz
Tel.:71-230-88-31**